

## O‘ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT

**Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li**

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: [tursunov.mirzohid1995@gmail.com](mailto:tursunov.mirzohid1995@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning obyektlari hisoblanmish argo, jargon va sleng haqida ma’lumotlar, ular orasidagi farqlar, sotsioektlarning vazifalari va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** sotsiolekt, jargon, sleng, argo, umumiy jargon, yoshlar slengi.

Har bir tilning adabiy tilga mansub bo‘lmagan, biroq xalqning katta qismi uchun asosiy muloqot vositasi hisoblangan so‘zlari mavjud. Bu so‘zlar kundalik hayotda ko‘p ishlatilgani bois tilshunoslikda ulardan voz kechib bo‘lmaydi. Muloqot uchun qulay hisoblangan bu birliklar tilshunoslikda sotsiolekt deb yuritiladi. Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish nutq amaliyotida ishlab chiqilgan muloqot shakli. Mazkur shakllar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazaridan sotsiolektga “*argo*”, “*jargon*” va “*sleng*” kiradi.

Argo (*fransuzcha* – “*argot*”) – ayrim professional yoki ijtimoiy (sotsial) guruhning o‘ziga xos tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko‘p hollarda boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo‘ladi. Masalan: *maymun* – oyna (mahbuslar nutqida), *kolxoz* — chiptasiz yo‘lovchilar (haydovchilar tilida). Argolar nutqda muloqot predmetini sir tutish maqsadida qo‘llaniladi. Argolar qiziqishlari, mashg‘ulotlari, yoshlari bir xil bo‘lgan ma’lum tor doiradagi guruh vakillari qo‘llaydigan so‘zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so‘zlarni boshqa ma’noda qo‘llashadi. Otarchilar, o‘g‘rilar, savdogarlarning o‘z argolari mavjud. Masalan, a) otarchilar argosidan: yakan(pul), joyi(yoq), dah(yaxshi), danap(qiz bola); b) o‘g‘rilar argosidan: ligavi(militsiya), loy(pul), harif(pul egasi); d) savdogarlar argosidan: sar yoki sarpiyoz(ming so‘m), kapara(olti ming so‘m); e) bezorilar argosidan: zamri(jim tur), hamka(non), deshevka(chaqimchi)<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> Xolmanova.Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019.

Jargon (*fr. jargon — safsata*) — biror ijtimoiy guruhning oʻziga xos muloqotida uchraydigan soʻzlar va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi, turli sheva hamda lahjalardan farq qiladi. Koʻp hollarda, jargon inson maʼnaviyatidagi salbiy qusurlardan biri sifatida namoyon boʻladi. Uni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik lozim. Jargon barqaror boʻlmaydi, u ham til, ham uslubiy jihatdan turli-tuman va tezda oʻzgaruvchan xususiyatga ega. Yoshlar orasida “*ketdim*” oʻrniga “*sirpandim*”, “*pul*” oʻrnida “*soqqa*”; sanʼatkorlar orasida “*xizmat uchun haq olmaslik*” oʻrnida “*tom suvoq*”, “*pul*” oʻrnida “*yakan*” va shu kabi jargonlar uchraydi. Jargon terminining mazmun jihatida “yasama til” maʼnosi (ideografik semasi) bilan birga peyorativ sema (kamsituvchi konnotatsiya) ham bor (harbiy jargon, oʻgʻrilar jargoni kabi), argo termini maʼnosida esa peyorativ sema yoʻq. Jargon yoki argoga mansub lugʻaviy birliklar jargonizm va argotizmlar deb yuritiladi<sup>6</sup>. Jargonizm va argotizmlar adabiy tilda ishlatilmaydi. Ulardan jonli soʻzlashuv nutqida yoki badiiy asar tilida uslubiy maqsadlardagina foydalanish mumkin. Qiziqishlari, mashgʻulotlari, yoshlari bir xil boʻlgan juda tor doiradagi kichik ijtimoiy guruh va toʻdalar oʻzlariga xos didlari va talablari yoki ichki zarurat hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻz nutqlarida baʼzan umumqoʻllanishdagi soʻzlardan farqli boʻlgan alohida soʻz va iboralarni ishlatadilar. Bular jargon deyiladi. Jargon soʻzlarni qoʻllovchi kishilar guruhi turli-tuman boʻlgani bois jargon kelib chiqishi ham turlichadir. Jamiyatda jargonga nisbatan oʻtkinchi, yaʼni vaqtinchalik sifatlari xosdir. Ular vaqt va sharoit oʻzgarsa, tezda oʻzgaradi. Baʼzan jargon adabiy nutqqa oʻtishi ham kuzatiladi.

“novcha”- aroq;

“qizil”- vino;

“bomj”- yashash joyining tayini yoʻq, daydi odam (ichuvchilar nutqida)

“atanda”- xavf-xatar;

“yuxolar” – mayda oʻgʻrilar;

“shuher”- qoch;

“ment”- militsioner;

“shotir”- guruh boshligʻi xizmatida boʻlgan jinoyatchi shaxs (kriminal guruhlar nutqida);

“tanzin”- foyda;

“tavaqqul aylang” - umid bilan kuting (savdogarlar nutqida).

“togʻamning oʻgʻli” - militsioner, inspektor (shofyorlar nutqida).

“oʻtdim” - imtihonni yaxshi bahoga topshirish;

---

<sup>6</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.

“surmoq”- darsdan qochmoq;  
“o‘g‘il bolaning bahosi”- uch;  
“tanka”- yuqori mansabdagi tanish-bilish (talabalar nutqida).  
“ona”- kichik ofitser;  
“qush”- o‘q;  
“ruchka”- serjant;  
“flomaster”- ofitser (harbiylar nutqida)  
“strelka”- uchrashuv (yoshlar nutqida).

Sh.Shoabdurahmonov va M.Asqarova (1980) va boshqalar jargonni “sinfiy ayirmalikni ko‘rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralar. Jargon o‘zbek tilining o‘z so‘zlaridan, ba‘zan boshqa (arab va tojik) tillardan olinib ko‘zlangan so‘zlardir”<sup>7</sup> deb ta‘rif berganlar. Tilshunos olim M.Mirtojiev jargon va argoga alohida to‘xtalib, quyidagicha yozadi: “Jargon jamoadagi tabaqalanish bo‘yicha o‘z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo‘llanadigan terminlardir. Masalan, aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo‘ja, janob, hazrati oliy kabi terminlarni ko‘rsatish mumkin”; “argo ma‘lum soha vakillaridan qo‘llanilib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o‘g‘rilar argosida pulni *loy*, narsasini o‘g‘irlatgan odamni *harf* va h.k.”<sup>8</sup>. Jargonlar badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi. Tarixiy asarlarda tarixiy muhit yaratish uchun, zamonaviy asarlarda esa qahramon qiyofasini ochib berish uchun jargonlardan foydalaniladi. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi shular manfaatiga xizmat qiladi. Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashmaslik maqsadga muvofiqdir. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tezda o‘zgaruvchandir, u barqaror emas. A.Spirs o‘z tadqiqotlarida jargonning barcha majburiy xususiyatlarini aks ettiradi. Jargon xususiyatlarini quyidagicha ifodalaydi:

1. Adabiy tilda nomi bo‘lgan narsa va hodisalarning boshqacha, juda tor guruhdagi atamasidir.

2. Ekspressiv-stilistik ruhga ega.

3. Ko‘pchilik jargonlar vaqtinchadir. Vaqt o‘tishi bilan unutiladi yoki adabiy tilga o‘tib ketadi.

Sleng – til talablariga javob bermaydigan, adabiy tildan farqli o‘laroq, professional ravishda ajratilgan guruhlarining nutqi. Sleng - o‘smirlarning ko‘cha tilidir. Sleng tushunchasi tobora zamonaviy filologiyaning e‘tiborini qozonmoqda, asosan, oson muloqot uchun ishlatiladi. Sleng termini ilk bor yozma ravishda XVIII

<sup>7</sup> Shoabdurahmonov. Sh., Asqarova. M. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 1980.

<sup>8</sup> Mirtojiev. M. M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zMU, 2000. -B.54-58.

asrda Angliyada qayd etilgan va o'sha vaqtda "haqorat" ma'nosini ifodalagan. 1850-yildan "noqonuniy" leksikaning ifodasi sifatida keng qo'llanila boshlandi. Sleng muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarga xos so'zlar bo'lib, og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham bunday so'zlardan foydalanish kuzatiladi<sup>9</sup>.

"olmaxon"- o'zini oladigan, nozlanadigan odam;

"g'isht" – xunuk;

"sindirdim" – lol qoldirdim;

"krutoy" – olifta;

"OK" – yaxshi;

"awesome" – juda zo'r;

"короче" – xullas;

"от души" – chin dildan;

"uxlatib ketdi" – aldab ketmoq;

Bugungi kunda slenglarning katta qismini chet tili so'zlari egallamoqda. Bu holat yoshlar orasida urfga aylanmoqda. Zamonaviy yoshlar nutqida slenglarning vujudga kelishiga bir qator sabablar mavjud:

- chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj;
- xalqaro sayohatlar;
- kompyuter texnologiyasining rivojlanishi;
- yangi do'stlar orttirish va erkin muloqot qilish;
- ommaviy axborot vositalarini muntazam kuzatib borish;
- zamonaviy musiqalarni tinglash;
- zamon bilan hamnafas bo'lish<sup>10</sup>.

Umuman olganda, XXI asrga kelib, ingliz tili lug'atlaridagi ta'riflar slengga faqatgina ijobiy yondashuvni ko'rsatdi. Masalan, M.M.Mayakovskiy slengni hayratlanarli darajada ulug'laydi va shunday ta'rif beradi: "Sleng – bu tarixan rivojlangan, ma'lum miqdorda barcha ijtimoiy qatlam vakillari uchun lingvosotsial (ijtimoiy) me'yor hisoblanib, asosan og'zaki nutq sohasida ham genetik, ham funksional jihatdan jargon va funksional til elementlaridan farq qiladigan maxsus til vositasi"<sup>11</sup>.

Turk tilshunosligida argo, jargon va sleng atamaları umumlashtirilgan holda "Argo" termini orqali ifodalanadi. O'zbek va rus tilshunosligida esa bu atamalar alohida tushuncha hisoblanadi. Ba'zan bu atamalar orasidagi farq deyarli yo'qoladi.

<sup>9</sup> Usmonova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2014.

<sup>10</sup> Satimova.D.N. Ingliz va o'zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili. Diss.avtoref. Andijon,2020. – 18bet.

<sup>11</sup> Маковский. М.М. Английские, социальные, диалекты. Онтология, структура, этимология.- М.: Высшая школа.1982.-С.22-23.

Masalan, manbalarga ko‘ra, “chau” – xayr (stilga berilgan yoshlar nutqida) so‘zi jargon deb aytiladi. Vaholanki, yoshlar nutqi sotsiolingvistikada sleng hisoblanadi. Yoshlar slengi va yoshlar jargonining asosiy farqlari shundan iboratki, yoshlar slengi umumiy sleng xususiyatlariga mos ravishda keng ijtimoiy doira, yorqin ifodalangan ekspressiya, hazil -mutoyiba xarakterli, ijtimoiy qatlamdagi turli xil sohadagi yosh avlod vakillariga xoslik kabi xususiyatlarga ega. Yoshlar jargoni esa cheklangan tor doirada tushunarli bo‘lib, asosan sirli so‘zlashuv nutqi hisoblanadi. Jargondan farqli o‘laroq, slengda hech qanday kasbiy chegara yo‘q, uning ishlatilishi foydalanuvchining ma’lum madaniy maqomini ko‘rsatadi.

Shu kabi chalkashliklar tilimizda ko‘plab topiladi. Sotsiolektning bu uch terminining aniq chegarasi hozircha mavjud emas, chunki bu mavzuda ilmiy tadqiqotlar yetarli emas va bu soha hali to‘liq o‘rganilmagan. “Jargon” – adabiy tilda mavjud bo‘lgan so‘zni boshqa bir nom bilan atash. “Argo”da esa maxfiylik mavjud. Bu so‘z ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgach, o‘z o‘rnini boshqa bir maxfiy so‘zga bo‘shatib beradi. “Sleng” esa yoshlarning mahfiy nutqi hisoblanadi. Bizningcha, o‘zbek tilshunosligida, xususan, o‘zbek sotsiolingvistikasida sotsiolekt hisoblangan argo, jargon va slenglarni bir atama bilan “jargonlar” deyish mumkin: professional jargonlar, haydovchilar jargoni, yoshlar jargoni, kompyuterchilar jargoni va hokazo.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Actunc.H. Büyük Argo Sözlüğü. –Istanbul, 1981.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2013.
- 3.Маковский. М.М. Английские, социальные, диалекты. Онтология,структура, этимология.- М.: Высшая школа.1982. – С.22-23.
4. Mirtojiev. M. M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zMU, 2000. – B.54-58.
5. Satimova.D.N. Ingliz va o‘zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili. Diss.avtoref. Andijon, 2020. – 18bet.
6. Usmonova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. –T.: Universitet, 2014.
7. Xolmanova.Z. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2019.
8. Shoabdurahmonov. Sh., Asqarova. M. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.:O‘qituvchi, 1980.